



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI  
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июль

VI-48-101-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho'basi mudirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli farmoni ijrosi yuzasidan axboroti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи PQ-5215-sonli qarori, PQ-5216-sonli qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va qarovsizlikka barham berish, ular o‘rtasida jinoyat va huquqbazarlik sodir etilishining oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, turli salbiy g‘oyalar ta’sirlaridan himoya qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida bir qator profilaktik-ogohlantiruv tadirlari amalga oshirilgan.

Jumladan, 2022-yil 1-aprel holatiga tumanda voyaga yetmaganlar orasida sodir etilgan jinoyat, huquqbazarliklar hamda ular tomonidan o‘z joniga qasd yoki suiqasd qilish kabi salbiy holatlar yuzasidan ishlar tahlil qilingan.

Tumandagi 71 ta umumta’lim maktablari, 1 ta DIMI, 1 ta IDUM va 3 ta maxsus mакtab internatida 40728 nafar o‘quvchilardan 2 nafari chetga ketgan, 31 nafari chin yetimlar, 2 nafari surunkali dars qoldirayotganlar, 16 nafari noodatiy kиyinganlar, 4 nafari jinoyatchilikka moyilligi borlar, 5 nafari tarbiyasi og‘irlar, 69 nafari nogiron o‘quvchilar, 147 nafari kam

ta'minlanganlar, 9 nafari notinch oila farzandlari hisoblanadi.

Tumanda 2022-yil 1-aprel holatiga 7 ta holatlarda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etish kuzatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-avgustdag'i 39-sonli bayonining 9.4-bandi ijrosi bo'yicha belgilangan oila tarbiyasi (patronat)ga olingan tarbiyalanuvchilarning har hafta yashash sharoiti, oilasining holati, oilaga ko'nikishi, sog'lig'i va turmush tarzidan xabar olish uchun tumanda ishchi guruhi tuzilib, har hafta so'ngida oilalarni o'rganish bo'yicha muhokamasi o'tkazilgan.

O'rganish davomida aniqlangan kamchiliklar tegishli tashkilotlar rahbarlari tomonidan bartaraf qilingan. Tumanda 66 nafar bolalarga vasiylik, 55 nafar bolalarga homiylik belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuning 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. Sho'rchi tumani hokimligi Bolalarni himoya qilish sho'basi mudiri F.Shaymardonovning "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 avgustdag'i "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli farmoni yuzasidan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bolalarni himoya qilish masalalari bo'yicha tuman komissiyasi a'zolari quyidagilarni amalga oshirib borsin.

Xususan:

- tumandagi 71 ta umumiyligi o'rta ta'lif maktablari, 1 ta DIMI, 1 ta IDUM va 3 ta maxsus muktab internatida 40728 nafar o'quvchilardan 2 nafari chetga ketgan, 31 nafari chin yetimlar, 2 nafari surunkali dars qoldirayotganlar, 16 nafari noodatiy kiyanganlar, 4 nafari jinoyatchilikka moyilligi borlar, 5 nafari tarbiyasi og'irlar, 69 nafari nogiron o'quvchilar, 147 nafari kam ta'minlanganlar, 9 nafari notinch oila farzandlari hisoblanishini

inobatga olib, Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani), Milliy komissiya hamraisi va Bosh vazirning ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rribbosari, Milliy komissiya hamraislari tomonidan tasdiqlangan "Bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar to'g'risida"gi Nizomi talablari asosida ishlarni tashkillashtirib, 2 nafar chetga ketganlar, 31 nafari chin yetimlar, 2 nafari surunkali dars qoldirayotganlar, 16 nafari noodatiy kiyiganlar, 4 nafari jinoyatchilikka moyilligi borlar, 5 nafari tarbiyasi og'irlar, 69 nafari nogiron o'quvchilar, 147 nafari kam ta'minlanganlar, 9 nafari notinch oila farzandlari bilan ishlashda bu ko'rsatkichlarni kamaytirishga erishib, har bir o'quvchi bilan alohida muloqot qilib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilsin.

3. Bolalar masalalari bo'yicha tuman komissiyasi ishchi guruhiga:

- tumanda tilanchilik bilan shug'ullanayotgan bolalarni aniqlash, aeroportda, vokzallarda, xiyobonlarda, istirohat bog'larida, masjidlarda, bozorlar va savdo majmualari hududlarida, ularga tutash hududlarda, avto turargohlarda, ko'chalarda, stadionlarda, bekatlarda, ularning qatnov qismida va boshqa joylarda profilaktik ishlarni tashkil etish, kelgusida bu kabi ishlarni jadallashtirish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Sattorova) hamda tuman hokimining o'rribbosari U.Choriyevlar zimmalariga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi



Xudoyberganov B.X